

BRICS VA XALQARO XAVFSIZLIK: KO'P QUTBLI DUNYO SARI HARAkat

Amirqulova Dilrabo Sanaqul qizi

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Xalqaro munosabatlar va jahon siyosati mutaxassiligi
2-bosqich magistranti
amirqulovadilrabo@gmail.com
+998974099819

Ilmiy rahbar: s.f.d., prof. S. Saidolimov

Annotatsiya. Ushbu maqolada BRICS tashkilotining xalqaro xavfsizlik sohasidagi o'rni, tashabbuslari va global siyosiy tartibga ko'rsatayotgan ta'siri tahlil qilinadi. BRICS doirasidagi hamkorlik, ko'p qutbli tizimga o'tish jarayonida muhim vosita sifatida qaralib, BMT xavfsizlik kengashining islohoti, terrorizmga qarshi kurash, kiberxavfsizlik, va harbiy-siyosiy barqarorlik masalalari kontekstida o'rganiladi.

Kalit so'zlar. BRICS, xalqaro xavfsizlik, ko'p qutbli dunyo, global tartib, xavfsizlik tashabbuslari, BMT islohoti.

Annotation. This article analyzes the role, initiatives, and impact of the BRICS organization on international security and the global political order. Cooperation within BRICS is examined as a key mechanism in the transition to a multipolar world, particularly in the context of UN Security Council reform, counterterrorism, cybersecurity, and geopolitical stability.

Keywords: BRICS, international security, multipolar world, global order, security initiatives, UN reform.

Аннотация. В статье анализируется роль и инициативы организации БРИКС в сфере международной безопасности и её влияние на глобальный политический порядок. Сотрудничество в рамках БРИКС

рассматривается как важный инструмент перехода к многополярному миру, особенно в контексте реформы Совета Безопасности ООН, борьбы с терроризмом, кибербезопасности и геополитической стабильности.

Ключевые слова: БРИКС, международная безопасность, многополярный мир, глобальный порядок, инициативы в области безопасности, реформа ООН.

Kirish

XXI asr global siyosiy maydonida muhim geosiyosiy siljishlar davri bo'lib, bu davrda xalqaro munosabatlarning an'anaviy G'arb markazli tizimi o'rniga ko'p qutbli va ko'p markazli tuzilma shakllanmoqda. Aynan shunday sharoitda BRICS (Braziliya, Rossiya, Hindiston, Xitoy va Janubiy Afrika) tashkiloti global siyosat va xalqaro xavfsizlik sohalarida muqobil institutsional model sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur maqolada BRICSning xalqaro xavfsizlik tizimidagi roli, u tomonidan ilgari surilayotgan tashabbuslar va global tartibga ta'siri tahlil qilinadi. BRICSning asosiy maqsadlaridan biri mavjud geosiyosiy nomutanosibliklarni bartaraf etish va rivojlanayotgan davlatlarning xalqaro siyosatda ovozini kuchaytirishdan iborat bo'lib, bu yo'nalishdagi faoliyat ayniqsa xavfsizlik sohasida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Global xavfsizlik bugungi kunda an'anaviy harbiy tahdidlar bilan bir qatorda gibril urushlar, terrorizm, kiberxavfsizlik, strategik infratuzilmalarning himoyasi kabi murakkab masalalarni qamrab oladi. BRICS davlatlari ushbu tahdidlarni oldini olish va ularni bartaraf etish yo'lida o'zaro muvofiqlashtirilgan siyosat yuritishga intilmoqda. Shu ma'noda, BRICS ko'p qutbli dunyo sari intilishda nafaqat iqtisodiy hamkorlik balki xavfsizlik sohasida ham muhim geosiyosiy o'yinchiga aylanmoqda.

BRICS tashkiloti dastlab iqtisodiy hamkorlik platformasi sifatida shakllangan bo'lsa-da, bugungi kunda u xalqaro xavfsizlikning turli jihatlarini bo'yicha muhim tashabbuslarni ilgari surayotgan global aktorga aylangan. Ayniqsa, 2010-yillardan boshlab BRICS sammitlarida xavfsizlik masalalari barqaror muhokama qilinib, tashqi tahdidlarga nisbatan umumiy pozitsiya shakllantirilmoqda. Misol uchun, 2013-yildagi Durban sammitida BRICS davlatlari global xavfsizlik masalalarida mustaqil pozitsiyani ilgari surish va BMT Xavfsizlik Kengashi islohotlariga doir birdam fikr bildirgan edilar¹.

Xalqaro xavfsizlikka oid yondashuvlarda BRICS a'zolari o'z suverenitetini saqlab qolgan holda, kollektiv xavfsizlik tushunchasini ilgari suradi. Bu yondashuv G'arbning harbiy bloklarga asoslangan xavfsizlik modelidan farq qiladi. BRICSda hech bir a'zo davlat ikkinchisining suveren qarorlarini zo'rlik bilan o'zgartirishga urinmaydi; bu esa hamkorlikka asoslangan, "yumshoq kuch"ga tayanuvchi xavfsizlik modeli sifatida qaraladi².

Ko'p qutbli xavfsizlik tizimining shakllanishi bugungi dunyoda mavjud bo'lgan kuch markazlarining diversifikatsiyalanishi, AQSH va NATOga nisbatan muqobil platformalarning paydo bo'lishi bilan bog'liq. BRICS aynan shunday o'ziga xos pozitsiyani egallab, global janubning manfaatlarini ilgari suruvchi geosiyosiy blok sifatida harakat qilmoqda. Ayni paytda, Xitoy va Rossiyaning global xavfsizlik masalalarida yetakchi rol o'ynashi BRICS doirasidagi xavfsizlik tashabbuslariga geostrategik og'irlik kiritmoqda³.

¹ Durban Declaration, Fifth BRICS Summit, South Africa, 2013.

² Stuenkel O. *Post-Western World: How Emerging Powers Are Remaking Global Order*. Cambridge: Polity Press, 2016. – B. 88–90.

³ Lukin A. "The BRICS and Global Governance: Challenges of the Multipolar World." *Global Governance*, Vol. 25, No. 3, 2019, pp. 409–428.

Bundan tashqari, BRICS mamlakatlari BMTning isloh qilinishini, xususan Xavfsizlik Kengashining kengaytirilishini talab qilmoqda. BRICSning pozitsiyasiga ko'ra, bu kengashda Hindiston va Braziliya kabi rivojlanayotgan mamlakatlarning doimiy a'zolari global adolat tamoyiliga mos keladi⁴. Shu bilan birga, har bir BRICS davlati o'z mintaqaviy xavfsizlikka oid tashabbuslari orqali umumiy global xavfsizlikka hissa qo'shmoqda. Masalan, Braziliya Janubiy Amerika xavfsizligida, Janubiy Afrika esa Afrika Ittifoqi doirasida muhim rol o'ynaydi.

BRICS davlatlarining xavfsizlik sohasidagi hamkorligi, ilk navbatda, milliy xavfsizlik va suverenitet tamoyillariga asoslangan bo'lib, ular o'zaro intervensiyasiz, tenglik va o'zaro manfaat prinsiplariga tayanadi. Tashkilot doirasida har yili o'tkaziladigan Milliy xavfsizlik kengashi kotiblari uchrashuvlari orqali strategik muvofiqlik masalalari muhokama qilinadi. Bu uchrashuvlarda umumiy xavf-xatarlar – transmilliy jinoyatchilik, narkotrafik, terrorchilik, biologik xavfsizlik va kiberxavfsizlik bo'yicha koordinatsiya masalalari ko'tariladi⁴.

Ahamiyatlisi shundaki, BRICS xavfsizlik bo'yicha o'zini harbiy blok sifatida emas, balki siyosiy-muloqot va kelishuv platformasi sifatida ko'rsatmoqda. Bu unga an'anaviy geosiyosiy kuch markazlaridan farqli tarzda, yumshoq kuch orqali xavfsizlikni ta'minlash vositasi sifatida faoliyat yuritish imkonini beradi.

BMT Xavfsizlik Kengashining zamonaviy global tartibga mos bo'lmagan strukturasini tanqid qilgan holda, BRICS davlatlari ushbu organing islohotini yoqlab chiqishmoqda. Ayniqsa, Hindiston va Braziliya kengaytirilgan tarkibda

⁴ BRICS National Security Advisors Meetings Joint Statements (2016–2023). See: BRICS India 2021 Official Website – “Joint Statement by the National Security Advisors of the BRICS Countries.” www.brics2021.gov.in
SJIF: 5.051

doimiy a'zolikni qo'lga kiritish niyatida. Bu borada BRICS mamlakatlari 2015-yildan boshlab o'zaro qo'llab-quvvatlovchi deklaratsiyalar qabul qilishmoqda⁵.

BRICSning bu yo'nalishdagi tashabbuslari global janub davlatlariga xalqaro qaror qabul qilish tizimida ko'proq ovoz berilishi tarafdori ekanini anglatadi. Bu, o'z navbatida, dunyo xavfsizlik tizimining yanada adolatli va inkluziv bo'lishiga xizmat qiladi. Shu maqsadda BRICS doirasida turli ekspert guruhlar va siyosiy-muloqot platformalari faoliyat yuritmoqda.

XXI asrda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi kiberxavfsizlikni xalqaro xavfsizlikning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylantirdi. BRICS davlatlari bu masalaga dolzarb yondashib, 2017-yilda Xitoyning Szyamen shahrida o'tgan sammitda "Kiberxavfsizlik hamkorligi to'g'risidagi deklaratsiya"ni qabul qildilar⁶. Bu hujjatda BRICS davlatlari internet suverenitetini saqlash, global internet boshqaruvini demokratlashtirish va axborot maydonida gibril tahdidlarga qarshi kurashda birgalikda harakat qilishga kelishib oldilar.

BRICS a'zolari har biri alohida-alohida katta texnologik infratuzilmaga ega bo'lib, birgalikda kiberhujumlarning oldini olishda real salohiyatga ega. Misol uchun, Xitoy va Hindiston dunyoning eng yirik IT-bozorlariga ega bo'lish bilan birga, o'z raqamli suverenitet siyosatini yuritmoqda. BRICS doirasidagi axborot xavfsizligi bo'yicha ekspertlar guruhi esa strategik koordinatsiyani mustahkamlab boradi.

Terrorizmga qarshi kurash BRICSning xavfsizlik yo'nalishidagi asosiy ustuvorliklaridan biridir. Tashkilot bu borada xalqaro huquq normalariga tayangan holda, "ikkiyuzlama" yondashuvlarga qarshi chiqadi. BRICS davlatlari ayrim

⁵ BRICS Ministers of Foreign Affairs Joint Communiqués, 2015–2023. See: BRICS Brazil 2019 – "Joint Communiqué of the BRICS Ministers of Foreign Affairs/International Relations." www.brics2019.itamaraty.gov.br

⁶ BRICS Leaders Xiamen Declaration, September 4, 2017. See: BRICS 2017 China – "BRICS Leaders Xiamen Declaration." www.brics2017.org

davlatlarning siyosiy raqiblarini “terrorchi” deb atab, ularni kuch bilan bostirish amaliyotlarini rad etadi va universal yondashuvga chaqiradi⁷.

BRICS sammitlarida, xususan 2021-yilda Hindistonda o‘tgan yig‘ilishda, terrorizmga qarshi kurashda BMTning markaziy roli alohida ta’kidlandi. Bundan tashqari, radikallashuv, ekstremistik mafkuralarning tarqalishi, diniy adovat keltiruvchi omillarga qarshi kurashish borasida keng qamrovli hamkorlik strategiyasi ishlab chiqilmoqda. Bu esa BRICS doirasida xavfsizlik muammolariga murakkab, ko‘p qirrali yondashuv mavjudligini ko‘rsatadi.

Bugungi xalqaro siyosiy tizim tobora murakkablashib, ko‘plab tahdidlar va chaqiriqlar bilan yuzlashar ekan, BRICS tashkiloti global xavfsizlik muammolariga muqobil, o‘ziga xos yondashuvni taklif qilmoqda. Mazkur maqolada ko‘rib chiqilganidek, BRICS xavfsizlik sohasida muhim tashabbuslarni ilgari surmoqda: BMT Xavfsizlik Kengashining islohoti, terrorizmga qarshi kurashda universal tamoyillarni ilgari surish, kiberxavfsizlik va strategik barqarorlik masalalarida muvofiqlashtirilgan yondashuv buning yaqqol misolidir.

BRICSning xalqaro xavfsizlikdagi pozitsiyasi bir tomondan G‘arb harbiy bloklaridan farq qiluvchi suverenitet, tenglik va aralashuvsiz hamkorlik tamoyillariga asoslangan bo‘lsa, boshqa tomondan, global janubning manfaatlarini ilgari suruvchi strategik platforma sifatida shakllanmoqda. Shu jihatdan, BRICSning xavfsizlik siyosati kuch ishlatishga emas, balki muloqot va kooperatsiyaga asoslangan “yumshoq kuch” strategiyasini namoyon etmoqda.

Yaqin istiqbolda BRICSning xalqaro xavfsizlikdagi roli quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha chuqurlashishi mumkin:

⁷ BRICS Counter-Terrorism Strategy, adopted at the XII BRICS Summit, Moscow, November 17, 2020. See: Official BRICS Russia 2020 Website – “BRICS Counter-Terrorism Strategy.” www.brics-russia2020.ru
SJIF: 5.051

- a) **Raqamli xavfsizlik bo'yicha ko'p tomonlama platformalarni yaratish**, axborot suverenitetini saqlashda BRICS davlatlarining o'zaro texnologik integratsiyasini kuchaytirish;
- b) **Terrorizm va ekstremizmga qarshi universal tamoyillarga asoslangan hamkorlikni chuqurlashtirish**, diniy va etnik radikalizmning ildiziga qarshi tizimli choralarni ishlab chiqish;
- c) **Xalqaro huquq tamoyillariga asoslangan xavfsizlik tashabbuslarini BMT bilan uyg'unlashtirish**, ayniqsa global xavfsizlik boshqaruvida rivojlanayotgan davlatlarning rolini oshirish;
- d) **Geosiyosiy xavflar oldida o'zaro strategik maslahatlashuvlarni institutsionallashtirish**, yangi a'zolar (BRICS+)ni ham jalb qilgan holda xavfsizlik bo'yicha keng doirali muloqot maydonini shakllantirish.

BRICS xalqaro xavfsizlik masalalarida tobora faol va muhim geosiyosiy institut sifatida shakllanmoqda. Tashkilotning universal, barqaror, ko'p qirrali xavfsizlik tartibotiga intilishi – kelajakda ko'p qutbli va adolatli global tizimning shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynashi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, BRICS tashkiloti bugungi murakkab va o'zgaruvchan xalqaro xavfsizlik tizimida o'ziga xos va muqobil model sifatida shakllanmoqda. Tashkilotning global xavfsizlikka doir yondashuvi kuch ishlatish emas, balki suverenitet, tenglik, muloqot va o'zaro manfaat tamoyillariga asoslangan. BRICS tomonidan ilgari surilayotgan tashabbuslar – BMT Xavfsizlik Kengashining islohoti, terrorizmga qarshi universal kurash, kiberxavfsizlikda hamkorlik va geosiyosiy barqarorlikka xizmat qiluvchi siyosiy-muloqot

mexanizmlari – bugungi global tartibda ko‘p qutbli yondashuvni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, BRICS xalqaro xavfsizlikning nafaqat iqtisodiy, balki strategik jihatlarini qamrab olgan holda, rivojlanayotgan mamlakatlarning manfaatlarini himoya qilishda samarali institutga aylanish yo‘lida dadil qadamlar tashlamoqda. Kelajakda BRICS+ formatining rivojlanishi va ko‘p tomonlama xavfsizlik mexanizmlarining chuqurlashuvi, ushbu tuzilmaning jahon xavfsizlik me‘yorlarida mustahkam o‘rin egallashiga xizmat qilishi kutilmoqda.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Durban Declaration, Fifth BRICS Summit, South Africa, 2013.
2. Stuenkel O. *Post-Western World: How Emerging Powers Are Remaking Global Order*. Cambridge: Polity Press, 2016. – B. 88–90. BRICS Leaders Xiamen Declaration, 2017.
3. Lukin A. “The BRICS and Global Governance: Challenges of the Multipolar World.” *Global Governance*, Vol. 25, No. 3, 2019, pp. 409–428.
4. BRICS National Security Advisors Meetings Joint Statements (2016–2023). See: BRICS India 2021 Official Website – “Joint Statement by the National Security Advisors of the BRICS Countries.” www.brics2021.gov.in
5. BRICS Ministers of Foreign Affairs Joint Communiqués, 2015–2023. See: BRICS Brazil 2019 – “Joint Communiqué of the BRICS Ministers of Foreign Affairs/International Relations.” www.brics2019.itamaraty.gov.br
6. BRICS Leaders Xiamen Declaration, September 4, 2017. See: BRICS 2017 China – “BRICS Leaders Xiamen Declaration.” www.brics2017.org BRICS Think Tank Council Reports (2015–2023).

-
7. BRICS Counter-Terrorism Strategy, adopted at the XII BRICS Summit, Moscow, November 17, 2020. See: Official BRICS Russia 2020 Website – “BRICS Counter-Terrorism Strategy.” www.brics-russia2020.ru